
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT, JINOYAT-PROTSESSUAL KODEKSLARIGA HAMDA MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSIGA KIRITILGAN O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 12 fevraldagi "Jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 673-sonli Qonunining **1-moddasiga asosan** jinoyat [kodeksiga](#) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi:

1) 17-moddaning [to'rtinchi qismi](#) "1271" raqamidan keyin "1281" raqami bilan to'ldirildi;

2) quyidagi mazmundagi 1281-modda bilan to'ldirildi:

"1281-modda. O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxsga moddiy qimmatliklar berish yoxud uni mulkiy manfaatdor etish orqali u bilan jinsiy aloqa qilish

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxsning o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgani holda, unga moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish orqali u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, -

uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi";

3) 1482-modda ikkinchi qismining [dispozitsiyasidagi](#) "xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin" degan so'zlar chiqarib tashlandi;

4) [2161-modda](#) quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirildi:

"O'sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, -

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi";

5) 246-modda birinchi qismining o'zbekcha [matnidagi](#) "kuchli ta'sir qiluvchi zaharli" degan so'zlar "kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli" degan so'zlar bilan almashtirildi.

Qonuning 2-moddasida jinoyat-protsessual [kodeksiga](#) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi:

1) 345-moddaning [beshinchi qismidagi](#) "216, 217, 222-moddalarida" degan so'zlar "216-moddasida, 2161-moddasining ikkinchi qismida, 217, 222-moddalarida" degan so'zlar bilan almashtirildi;

2) 3812-modda birinchi qismining [1-bandida](#):

"128-moddasi birinchi qismida" degan so'zlardan keyin "1281-moddasida" degan so'zlar bilan to'ldirildi;

"214-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida» degan so'zlardan keyin "2161-moddasi birinchi qismida" degan so'zlar bilan to'ldirildi.

Qonuning 3-moddasida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi [51-moddasining ikkinchi qismi, ya'ni: "Xuddi shunday huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yetmish baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi"](#) degan so'zlar chiqarib tashlandi.

Shuningdek Qonuning 4-moddasida davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlanishi nazarda tutilgan.

Farg'ona tuman sudining sudyasi

J.Xaydarov - Jinoyat ishlari bo'yicha

Farg'ona tuman sudining

devonxona mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-03-30 08:52:04